

6-7 BOLALARINI OILADA MAKTABGA TAYYORLASH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHNING METODIK AHAMIYATI

METHODOLOGICAL IMPORTANCE OF IMPROVING THE PROCESS OF PREPARING 6-7 CHILDREN FOR SCHOOL IN THE FAMILY

МЕТОДОЛОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОЦЕССА ПОДГОТОВКИ 6-7 ДЕТЕЙ К ШКОЛЕ В СЕМЬЕ

**Meliyev X.A.
Jizzax DPI professori**

Аннотация: Таълим тизимини ilk бўғини мактабгача таълим хисобланади ҳамда таълим-тарбия тизимининг асосий мақсади бўлган – баркамол авлодни тарбиялашга эришишда муҳим аҳамият касб этади.

Калит сўзлар: оила, мактаб, мактабгача таълим, таълим, тарбия, қонунлар, баркамол авлод, тизим ва ҳаказо.

Аннотация: Первым звеном системы образования является дошкольное образование, которое играет важную роль в достижении главной цели системы образования - воспитании гармонично развитого поколения.

Ключевые слова: семья, школа, дошкольное образование, образование, воспитание, законы, гармонично развитое поколение, система и т. Д.

Annotation: The first link of the education system is pre-school education and plays an important role in achieving the main goal of the education system - the upbringing of a harmoniously developed generation.

Keywords: family, school, preschool education, education, upbringing, laws, harmoniously developed generation, system and so on.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida milliy ta’lim, tarbiya tizimi davlat siyosati darajasiga ko’tarildi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning muvaffaqiyatli bosqichma-bosqich joriy etilishi natijasida respublikada noyob uzlucksiz ta’lim tizimi yaratildi.

Ta’lim tizimini ilk bo‘g‘ini maktabgacha ta’lim hisoblanadi hamda ta’lim-tarbiya tizimining asosiy maqsadi bo‘lgan – barkamol avlodni tarbiyalashga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (29.12.16 y.) qarorida belgilangan kompleks tadbirlarning amalga oshirishda quyidagilar belgilangan:

- bolalarni maktabga tayyorlashning muqobil shakllarini tashkil etish;
- yuqori sifatli maktabgacha ta’limni ta’minlash;
- bolalarni sifatli maktabga tayyorlashni tubdan yaxshilash;
- bolalarni maktabga tayyorlashda ta’lim-tarbiya jarayoniga muqobil dasturlarni joriy etish;
- 3-7 yoshdagi ta’lim muassasalariga qamrab olmagan bolalarni, ularning ota-onalarini yoki ota-onalarni o‘rinlarini bosuvchilarini metodik qo‘llanmalar bilan ta’minlash orqali matab ta’limiga tayyorlashni tashkil etish;
- oilada bolalarni maktabga tayyorlash tizimini yanada isloh qilish.

Qarordagi kompleks tadbirlarni amalga oshirishda 2017-2018-o‘quv yili maktabga qabul qilingan 6-7 yoshli bolalarning tayyorgarlik darajasini (suhbat, kuzatuv, so‘rovnoma natijalarini) tahlil qilib ko‘radigan bo‘lsak, ayrimlarining psixologik va individual tomondan tayyorgarlik darjasini maktabgacha ta’lim muassasasiga borgan bolalarga nisbatan biroz sust bo‘lganligini aniqladik.

Shu munosabati bilan 6-7 yoshli bolalarni oilada maktabga tayyorgarlik jarayonini o‘rganish bo‘yicha quyidagi vazifalarga amal qilishga tavsiyalar beramiz:

- bolalarni birinchi navbatda jismoniy tayyorgarlik;
- intellektual tayyorgarlik;
- shaxsiy psixologik tayyorgarligi;
- ijtimoiy tayyorgarlik;
- erkin –xohish tayyorgarlik;
- oilada bolani kim tomonidan ko‘proq tarbiyaga ta’sir etadigan shaxs.

Bizga ma’lumki bolaning maktabga tayyorgarlik jarayonini to‘g‘ri olib borish ota-onalarga bog‘liq. Lekin ba’zida ota-onalar farzandini maktabga tayyorlash jarayonini o‘z bilgancha olib boradi, ya’ni 6-7 yoshli bolaga o‘qish,

hisob-kitob, yozishni va rasm chizishni o‘rgatadi. Lekin, bola bu yoshda bilimlarni o‘zlashtirishga tayyormi, jismoniy rivojlanish talab darajasidami, yo‘qmi, buni aniq bilmaydi. Shu bilan birga maktabga tayyorlayotganda nimalarga aniq e’tibor qaratish zarur?


Yuqorida muammolarning ba’zi jihatlariga e’tibor va quyidagi tavsiyalarni berishga lozimligini qayd etamiz.

Bolani maktabga jismoniy tayyorgarligi:



Shuning uchun bolaning kun tartibiga e’tibor berish, to‘g‘ri o‘sishga g‘amxo‘rlik qilish, toliqishni oldini olish, o‘qish, mehnat va dam olishni yo‘lga qo‘yishda qat’iy rioya etishlariga ahamiyat berish kerak. Bolani umumiyy harakatlari asosan qo‘l va barmoq harakatlarni shakllantirish uchun bola bilan har xil milliy va harakatli o‘yinlar tashkil qilish maqsadga muvofiq.

Bolani maktabga intellektual tayyorgarligi:



Ammo shu narsani qayd etish lozimki, ayrim honadonlarda bolalarga juda kam kitob o‘qib beriladi, bu esa bolani intellektual va nutqining rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Kitob o‘qib berish orqali ota-onalar o‘z farzandida obrazli, fazoviy tasavvur, nutq va bilish faoliyatining rivojlanishiga ham poydevor yaratadi. Bolaga hamisha o‘rganganlarini mustaqil mustahkamlab olish uchun va nazorat qilish, bolaga mehr-muxabbat bilan munosabatda bo‘lsangiz bola o‘ziga bo‘lgan ishonchni, qat’iylikni uyg‘otishi aniq.

Yuqoridagi vazifalarni qolganlarini anjumanda ma’ruzada yoritishga harakat qilamiz.